



GLOBALASHAYOTGAN DAVRDA XALQARO MUNOSABATLAR

Оқмаматов Анвар

Buxoro davlat universiteti tarix va yuridik fakulteti siyosatshunoslik yo'nalish talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon siyosatida globallashayotgan davrning o'рни hamda xalqaro munosabatlarning dunyo mamalakatlariga ta'siri. Duniyodagi yuksalgan davlatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar, taraqqiyotdan ortda qolgan mintaqalardagi sivilizatsaviy jarayonlar. Musulmon davlatlarining hukumatlari va G'arb mamalakatlari orasidagi munosabatlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: siyosiy realizm, globallashuv, xalqaro munosabatlar, sivilizatsiyalar to'qnashuvi, bir qutubli dunyo, ikki qutubli dunyo, tashqi siyosat, xalqaro muloqat

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Оқмаматов Анвар

студент политологии факультета истории и права Бухарского государственного университета

Аннотация: В данной статье рассматривается роль периода глобализации в мировой политике и влияние международных отношений на страны мира. Цивилизационные процессы в развитых странах и развивающихся странах, слаборазвитых регионах мира. Отношения между правительствами мусульманских стран и западные страны раскрыты.

Ключевые слова: политический реализм, глобализация, международные отношения, столкновение цивилизаций, однополярный мир, биполярный мир, внешняя политика, международное общение

INTERNATIONAL RELATIONS IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Okmamatov Anvar

a student of political science at the Faculty of History and Law of Bukhara State University

Abstract: In this article, the role of the globalization era in world politics and the influence of international relations on the countries of the world. Civilization processes in developed countries and developing countries, regions lagging behind development. Relations between the governments of Muslim countries and Western countries are revealed.

Keywords: political realism, globalization, international relations, clash of civilizations, unipolar world, bipolar world, foreign policy, international communication



Cho'lda o'rmalab yurgan jonivorlar ham tug'ilshidanoq o'z makonlarini biladilar, havoda uchuvchi qushlar ham, dengiz va daryolardagi baliqlar ham o'z oshyonlarini his qiladilar, hatto bolari va shunga o'xshashlar ham o'z uylarini yaratadilar, - shunday kabi odamlar ham yaxshi tug'ilib parvarish topsalar - o'sha joy cheksiz mehr qo'ygan bo'ladilar.

F. SKORINA

Maqolamni aynan ushbu iqtibosda boshlashga qaror qildim, chunki har bir tirik jon borki o'z tug'ilib o'sgan makoni haqida qayg'uradi, o'ylaydi hamda himoya qiladi. Globallashayotgan davrda ham ushbu qarash o'zgarmagan balki sayqallangan, mazkur kungacha insoniyat boshidan qancha urushlarni o'tkazdi zero nafas olayotgan jon borki urushga moyil bo'ladi, bu narsa yo'qolmaydi balki asrlar davomida genlar orqali avloddan-avlodga meros bo'lib qoladi. Ushbu jarayonni intixosi sifatida insoniyat xalqaro munosabatlarni o'ylab topdi. Xalqaro munosabatlar jahon siyosatining bir qismi bilan bog'liq bo'lib, uning tabiatini, ta'sirchanligini va taraqqiy topish mantiqini o'zgartiradi. U o'z tarkibidagi har bir konst-ruktsiyasi va har bir "tishi" zamonaviy taraqqiyot sharoitida o'zining qat'iy funktsiyalari, mamlakatlarga tegishli bo'lgan bir me'yoriy ob'ektlarning ko'p qismini bir maketini eslaydi. Xalqaro munosabatlar haqida gap ketar ekan dastlab uning shakillanish tarixini o'rganish darkor zero har bir predmetning boshlanish nuqtasi bo'ladi. Amerikalik siyosatshunos yirik ko'zga ko'ringan olim Stenli Xoffman ta'kidlaganidek xalqaro munosabatlar nazariyasini yaratish yo'lidagi urinishlarga shubha bilan qaragan edi uning fikriga ko'ra xalqaro munosabatlarni o'rganish sohasiga undagi revalutsiya boshlangan paytdan e'tiboran, ya'ni "siyosiy realizm" maktabi paydo bo'lganidan boshlab o'tgan qirq yillik tarixiga nazar solinsa, ushbu davr uchun yangi "yorib o'tishlar" emas, ko'proq boshi berk ko'chalar hos bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar tarang holda vujudga keldi chunki jahon mintaqalaridagi siyosatdonlar majbur bo'lishdi, negaki qonli urushalar, qo'shtirnoq ichidagi qattiq kuch ortiqcha qon to'kilishlarga, begunoh odamlarning yostig'ini qurutishga birdan bir chora hisoblandi. Bundan ayrim shaxslar yoki davlatlar ustomonlik bilan foydalanishdi ayrimlar esa eski tuzumni afzal ko'rishdi, shu tariqa ko'p qutubli dunyo paydo bo'la boshladi. Endi chuqur yondashsamiz, munosabatlar har bir davrda bo'lgan lekin zamon va makoni turlicha bo'lgan bu esa unga qo'shimcha ma'no mazmun bahsh etadi. Ibtidoyi davrdan boshlab ayrim predmetlarga muhdojlik yoki qaramlik, qabilalar, urug' jamolar hamda sardorlar o'rtasida munosabatlar shakillanishiga olib keldi. Bu esa ittifoq va ittifoqchilarning tuzulishiga sharoit yaratdi. Undan keyingi davrlarga nazar tashlaydigan bo'lsak xalqaro munosabatlarning sayqallanishiga guvoh bo'lamiz. Endi davrimizdan uzoqqa ketmagan holga nazar tashlasak sayyoramizning ikkita gegemon davlatlari hisoblangan Qo'shma shtatlar va Sobiq ittifoq rahbarlari AQSHning o'tiz beshinchi prezidenti Jon Kennedi va SSSR ning diplomatik rahbari Xurushchev o'rtasidagi Sovuq urushdan keyingi yumshalgan diplomatik munosabatlarga tarix guvoh bo'ldi.

Globallashuv jarayonlari avj olgan davrda xalqaro munosabatlarning o'rni beqiyos darajaga yetdi endi xalqlar axborot urushlariga e'tibor qarata boshladi, ushbu jarayonlar esa globallashuvning o'rnini belgilab berdi. Globallashuv atamasiga alohida e'tibor qaratadigan



bo'lsam. Globallashuv iborasi ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, butun dunyo bo'ylab iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiya va birlashish jarayonidir. Bu atama haqida va unga turli shaxslarning fikrlari hamda ularning bu terminni o'zlari sharxlaganini yaqin kunlarda hayotimizning barcha jabhalarida ko'rishimiz mumkin. Lekin bu atama nisbatan yaqinda bo'lganiga qaramay, globallashuv hodisasi tarixdagi uzoq vaqtlardan boshlanadi. Bazilar globallashuvning ba'zi xususiyatlari antik davrlarda paydo bo'lgan deb e'tirof etishidilar ayrimlar esa Rim imperiyasining O'rta yer dengizida o'zining gegomonligini o'rnatgani, bu esa turli madaniyatlarning o'zaro bog'lanishiga va O'rta er dengizida mintaqalararo mehnat taqsimotining paydo bo'lishiga olib kelgani bilan bo'g'laydi. Tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi globallashuvning ham yaxshi va yomon tomlari borligin eslatib o'tishim kerak. Globallashuv ba'zi rivojlanayotgan va taraqqiyotdan ortda qolgan mamlakatlar uchun o'zlari uchun no'malum va notanish dunyoga darcha ochdi xuddi salib yurishlari yevropaliklarga ochgani kabi. Ammo uning salbiy tomoni shundan iboratki bu jarayon iqtisodiyoti yirik davlat uchun yangi resuslar manbai va to'shtirnoq ichida yangi mustamlakalarni o'zlashtirishga imkon berdi, bu ish dastlab qurol kuchi bilan amalga oshirilgan bo'lsa endi qurol o'rnini pul yoki o'sha davlatning nimaga bo'lgan ehtiyoji asosiy o'rin egalladi. Bunga misol qilib Xitoyning Osiyo va Afrikaning ayrim davrlariga katta qarzlarni berish orqali uning iqtisodiyoti va siyosatiga kirib keldi. Buni ba'zilar to'g'ri baholadi ayrimlar esa negatf fikr bildirdi. Lekin kimning qanday pozitsiya tanlashi o'ziga bog'liq. Endi e'tiborni xalqaro munosabatlarga qaratsak, chunki bugungi globallashayotgan davrda har bir davlat xoh taraqqiy etgan, xoh etmaganligidan qattiy nazar dunyo davlatlari bilan aloqa o'ratishga majbur chunki bu hozirgi davr talabi deb qo'rqmasdan aytishim mumkin. Xalqaro munosabat atamasi dastlab Thucydides (mil avv 460-400) kiritgan. Xalqaro muloqatlar ikki yoki undan ortiq mamlakatlar, turli xil siyosiy va davlat yoki nodavlat tashkilotlari bilan bog'liq bo'lgan aloqalar tushuniladi. Yana shuni ta'kidlash joizki xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlar terminlari bir-biriga yaqin va ma'nodosh hisoblanadi. Uning ya'ni xalqaro munosabatlar faoliyati xalqlarning talab va ehtiyojlari, davlat manfaatlariga, xalqaro normalarga va qadiryatlarga asoslangan bo'ladi. Rosiyalik taniqli siyosatshunos akademik E.Pozdnyakovning fikriga ko'ra: «davrlarning o'zaro munosabatlari, ularning tashqi siyosati, tashqi siyosiy maqsadlari va ustuvorliklari va manfaatlari bilan uzviy bog'liqdir». Aynan shular xalqaro muloqotning tub negizini tashkil qiladi. Xalqaro munosabatlar raqobatlar yoki o'zaro xamkorlik asosida qurilishi mumkin. Ammo XXI asrda do'st-dushman degan davlatlar yo'q, faqat manfaatlar kesishgan mamlakatlar bor. Davlatlarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi xalqaro tizimning eng yaqqol belgilaridan hisoblanadi. Bu holat ularning o'zaro muloqotga bo'lgan ehtiyojidan hamda umumiy va ayni paytda, o'zaro farqlanib turuvchi turli xil manfaat va maqsadlar mavjudligidan kelib chikadi. Mazkur maqsadlarni amalga oshira borib, davlatlar bir-birlariga muqarrar ravishda o'zaro muomalaga kirishishi asnosida, ta'sir ko'rsatmay qolmaydilar. Bugungi kunda, yadroviy va kimyoviy qurollarning mavjudligi va ularni ishlab chiqarishga qaratilgan harakatlarning davom etayotganligi, xalqaro munosabatlarda davlat rahbarlari, siyosiy partiya va shaxslarning bir tomonlama qarashlarining saqlanib qolingani, davlatlarning o'zaro munosabatida «zo'ravonlik», «kuchga tayanish» hamda



taziq o'tkazishning turli usullari xalqaro munosabatlarga o'zgacha ma'no-mazmun qo'shibgina qolmay uni davlatlarning tashqi siyosatga bo'lgan e'tiborini yanada kuchliroq qaratishga chorlamoqda. Ayrim tarixiy man'balarning guvohlik berishicha, davlatlararo munosabatlarni kuch ishlatish bilan hal etish qonli urushlarga olib kelgan. So'ngi besh yarim ming yilning atigi 300 yiligina tinch va osoyishta o'tgan, qolgan vaqtlarda esa o'n beshmingdan ortiq har xil urushlar bo'lib o'tgan. Hamma narsalarda bo'lgani kabi xalqaro munosabatlarning ham obyekti va subyekti bor. Uning obyekti u o'rganayotgan munosabatlar va aloqalar bo'lsa, subyekti esa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar hisoblanadi. Davlat xalqaro hayotga ta'sir o'tkazishning asosiy vositalarini o'zida mujassamlashtirgan muassaviy subyekt hisoblanadi va shu orqali dunyo xalqlari va millatlari jahon siyosatiga kirib keladibgina qolmasdan dunyo miqyosida bo'layotgan voqea-hodisalarga o'z reaksiyasini bildiradi. Shuningdek xalqaro munosabatlarning subyektlari qatoriga davlatlar yomonida tuzilgan xalqaro-siyosiy yoki harbiy-siyosiy tashkilotlar ham kiradi. Bularga misol qilib Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari ittifoqi (ASEAN), Arab millatlar ligasi (AML) va boshqalar kirishi mumkin. Yana shuni qo'shimcha qilishim kerakki xalqaro siyosatning muhim subyektlari qatoriga obro'li xalqaro ijtimoiy va kasbiy tashkilotlar ham kiradi: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JST), Jahon kasaba uyushmalari federtasiyasi (JKUF), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va Xalqaro valyuta fondi. Yuqorida ta'kidlaganib o'tganidek, xalqaro siyosatda bir nechta davlatlar yoki malum bir hudud o'rtasida tashkilotlar, tizimlar yoki shartnomalar tuzadi. Buday tashkilot yoki diplomatik shartnomalar albatta malum bir narsaga qarshi yoki uni oldini olish, uning ta'sirini kamaytirishga qara hamda boshqa bir sabablarga asoslangan holda tuziladi. Bunga misol qilib Versal sulh shartnomasini ko'rsatishim mumkin. Birinchi jahon urushi tugaganidan keyin g'olib davlatlar bilan Germaniya o'rtasida Fransiyaning Versal shahrida 1919-yil 28-iyun imzolangan sulh shartnomasi. Unga binoan Germaniya ilgari bosib olgan anchagina hududlarni bo'shatib berdi. Fransiya — Elzas va Lotaringiya viloyatlarini, Polsha ilgari o'ziga tegishli bo'lgan ayrim hududlarni qaytarib oldi. Yangidan tashkil topgan Chexoslovakiya, Avstriya, Polsha davlatlarining mustaqilligi va daxlsizligini Germaniya tan oldi. Germaniyaning 100 ming kishidan ortiq armiyaga ega bo'lishi va majburiy harbiy xizmat joriy etishi ta'qiqlab qo'yildi, u Birinchi jahon urushining aybdori, deb topilib, zimmasiga Antanta davlatlariga 132 mlrd. marka kontributsiya (tovon) to'lash majburiyati yuklandi. Bu tarix zarvaraqlariga Versal tizimi kabi nomlar bilan ham ataladi. Versal tizimi tarkibidagi barcha shartnomalar matni aynan o'sha kuch markazlarining manfaatlariga xizmat qiladigan xalqaro tashkilot – Millatlar Ligasining nizomidan boshlangan. Dunyoning qayta bo'linishini niqoblash maqsadida, Versal tizimining ijodkorlari «mandat ostidagi» hududlar va protektorlarlar tizimini kiritadilar, ya'ni mandatarliy – davlat sobiq mustamlakani rasman Millatlar Ligasining topshirig'iga binonan boshqarar edi. O'sha olish voqealarning mungli sadosi hanuzgacha Yaqin Sharq, Shimoliy va Sharqiy Afrikadagi hududiy, etnik-ijtimoiy hamda boshqa muammolar ko'rinishida bizgacha yetib kelmoqda. Yangi xalqaro tizim nihoyatda beqaror bo'lib, juda qisqa fursat oraligida parokandalikka yuz tutdi. Birinchi jahon urushiga olib kelgan g'olib-mamlakatlar o'rtasida asosiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etmasdan, ushbu



tizim g'oliblar va mag'lub o'rtasida, shuningdek, g'olib mamlakatlar o'rtasida ham, bir qator yangi ziddiyatlarni tug'dirdi va bu holat jiddiy nizolar kelib chiqish xavfi mavjud bo'lgan yangi harbiy-siyosiy bloklarning tashkil topishini tezlashtirib yubordi. Versal sulhi vaqt sinovidan o'ta bilmadi va Ikkinchi jahon urushining boshlanishi arafasida undagi qoidalarining aksariyati buzilib bo'lgan edi. Germaniya qo'shinlarining 1936-yil mart oyida qurolsizlantirilgan Reyn hududiga kirib kelishi Versal shartnomasi qoidalari uchun ilk mash'um sinov bo'ldi. 1938-yil martida Germaniya tomonidan Avstriyaning ochiqdan-ochiq qo'shib olinishini anglatgan Anshlyus esa, bu yo'nalishdagi navbatdagi qadam bo'ldi. O'sha yili sentabr oyining oxirida Germaniya Buyuk Britaniya va Fransiyaning roziligi bilan («Munxen bitimi») Chexoslovakiyaning Sudet viloyatini egallab oldi, 1939-yil- ning martida esa butun Chexoslovakiya zabt etildi. Keyingi voqealar va hodisalar nimaga olib kelgani hammamizga ma'lum. Versal tizimiga so'nggi nuqta qo'ygan Ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi. Ikkinchi jahon urushidan so'nggi «Yalta-Potsdam tizimi» dunyoda siyosiy kuchlarning yangicha taqsimotiga asos soldi. Potsdamdan keyingi dunyo tizimi ikki qutbli tizimga aylandi. Sovet Ittifoqi va Qo'shma Shtatlar tomonidan tuzilgan harbiy-siyosiy bloklar: Varshava Shartnomasi hamda NATO, shuningdek, bir qator tizimosti iqtisodiy birlashmalar va harakatlarning kuch-qudrati mazkur tizimning asosini tashkil qildi. Dunyo siyosatining mahobatli ikkita «giganti» orasidagi murakkab qarama-qarshiliklar davri barchaga yaxshi ma'lum bo'lgan fojiali keskin o'zgarishlarga nihoyatda boy. Ikki kutbli tizimning «yaxshi» ekanligiga yetarli dalil topish va «yomon»ligini ham shuncha dalil asosida isbotlash mumkin. Lekin adolat yuzasidan shuni qayd etish joizki, kuchlarning ikki qutbli muvozanati tizimi Ikkinchi jahon urushidan keyin qaror topgan mutlaqo muayan shart-sharoitlar taqozosi bilan yuzaga keldi. Mazkur tizim Sovet Ittifoqining zaiflashuvi va keyinchalik parchalanib ketishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan obyektiv shart-sharoitlarga ko'ra o'z faoliyatini tugatdi. Bugungi kunda qator siyosiy tahlilchilar dunyodagi hozirgi mavjud tizimni yoki «bir qutbli» yoki (ko'p hollarda) «ko'p kutbli» tizim sifatida ta'riflashga urinadilar. Birinchi ta'rif shunga asoslanganki, dunyoda yagona buyuk mamlakat - AQSh qolgan bo'lib, u harbiy va iqtisodiy kuch-qudratning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha qolgan barcha davlatlardan ustundir. Ikkinchi ta'rifga ko'ra, ikki kutblilik tizimning buzilishi natijasida avval ikkinchi darajali xisoblangan davlatlar deyarli teng siyosiy mavqeni qo'lga kiritdilar. Shu yerda diqqat qaratadigan bitta narsa bor, bu Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO). Yevropa, Amerika Qo'shma Shtatlari hamda Kanada kabi ko'pchilik mamlakatlar birlashgan jahondagi eng yirik harbiy va siyosiy jamlanmasi, ya'ni «Yevropani tashqi ta'sirlardan himoya qilish» uchun ushbu tashkilotga 4-aprel 1949-yil AQShda asos solingan. Tashkilot yaratilgan paytda 12 ta mamlakat a'zo bo'lgan, hozirgi kunda esa a'zolar soni 31 taga yetgan. Dastlab bu ittifoq SSSR va uning huzurida tuzilgan Varshava shartnomasiga qarshi tuzilgan edi. Varshava shartnomasi - sobiq sotsialistik lager davlatlari - Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Germaniya Demokratik Respublikasi, Ruminiya, SSSR va Chexoslovakiya o'rtasida 1955-yil 14 mayda Varshavada Shimoliy Atlantika pakti (NATO)ga qarshi tuzilgan harbiy ittifoq. Varshava shartnomasi o'z ustavida BMT ustavining 51-moddasiga muvofiq, yakka va jamoa bo'lib, o'z-o'zini himoya etish to'g'risidagi qoidaga asoslanib, Varshava shartnomasiga a'zo davlatlar o'rtasida do'stlik,



hamkorlik va o'zaro yordam ko'rsatishni ko'zda tutgan bo'lsada, aslida sotsialistik tuzumga xizmat qildi, xalqlar va millatlarning o'z takdirlarini o'zlari belgilash to'g'risidagi xalqaro huquq qoidasini qo'pol ravishda buzdi. Buni qarangki SSSR barham topgandan keyin uning tarkibidagi va huzuridagi barcha uyushma yoki tashkilotlar faoliyati tugatildi, ammo yuqorida ta'kidlaganimdek unga qarshi tuzilgan NATO o'z maqsadiga erishdi lekin faoliyatini to'xtatmadi. Shuni esdan chiqormasligimiz kerakki biron-bir tashkilot yoki uyushma qandaydir maqsad asosida birlashadi, o'z oldiga qo'ygan maqsad amalga oshsa o'z ishini to'xtatadi menimcha bu qoyida NATO uchun emasga o'xshayapti. U buni qilmasdan o'z maqsadlari qamrovini kengaytirib, endi Rossiyaga qarshi...

Jahon siyosatida yana shunday iboralar borki ular sayyoramizning xohlagan nuqtasidagi vujudga keladigan muammolarning asosiy ishtirokchilari hisoblanadi, buni bir davlat yoki mamlakatlar o'rtasidagi to'qnashuv emas balki sivilizatsiyalar o'rtasidagi to'qnashuv deb atasak menimcha maqsadga muvofiq. Gap G'arb va musulmonlar o'ratidagi munosabatlar haqida ketyapti: ba'zan ikki sivilizatsiyalar orasida tinch va hamjihat qo'shnichilik munosabatlari hukum sursada, ko'pincha ular o'zaro turli darajadagi keskinlikka ega raqobat va urush holatida bo'ladi. Buni Jon Espozitoning gapida ham ko'rishimiz mumkin: «...odatda ikki sivilizatsiyalar orasida raqobat hukum surib, ular qudrat, yer va qalblar uchun hayot-mamot jangiga kirishgan». XIII asrda ispanlar O'rtayer dengizida musulmonlar bilan birga yashagan «noqulay qo'shnichilik» muhitini *la guerra fria* deb nomlaganlar. Bunday hodisalar kamdan-kam kuzatiladi. Sivilizatsiyalararo to'qnashuvlar ikki xil shaklga ega bo'ladi. Mahalliy yoki makro darajada: turli sivilizatsiyalarga tegishli qo'shni davlatlar orasida, har xil sivilizatsiyalarga oid davlatlar guruhlarida yoki Sovet Ittifoqi va Yugaslaviya hududlarida bo'lgani singari, eski davlatlar vayronalari orasidan yangi davlatlar qurishga intilayotganlar. Bunday nizolarga sabablar, ularning tabiati va dinamikasi. Ikkinchisi esa global yoki makro darajada: turli sivilizatsiyalarning yetakchi davlatlari orasidagi yadroviy davlatlar nizolari sodir bo'ladi. Islom va ham G'arbiy, ham provaslav nasroniyliklari orasidagi munosabatlar, odatda suronli bo'lgan. Lekin o'tgan o'n to'rt asr tarix bunu aksini ko'rsatmoqda. Liberal-demokratlar va marksizm-lelinizm orasidagi XX asrdagi kelishmovchilik tarixiy jihatdan islom va nasroniylik orasidagi uzoq davom etgan va chuqur nizo bilan solishtirsak, shunchaki o'tkinchi bir hodisa ekanligini anglash mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. S.F.Hantington «Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va yangi dunyo tartibi. 2023-yil
2. U.A.Xasanov «Xalqaro munosabatlar nazariyasiga kirish». 2007 Toshkent
3. A.Qosimov «Diplomatiya asoslari» 1996 Toshkent